

GO‘ZALLIK MA‘NOSINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

D.U. Rustamov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

Tillar va maktabgacha ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Beauty” ma’nosini ifodalovchi leksik birliklar izohli lug‘atlardan, hamda semantik lug‘atdan saralab olinib ularning umumiy ma’nolari aniqlandi va “Beauty” so‘zining sinonimlari yanada chuqurroq tahlil qilindi.*

***Annotation:** In this article, the lexical units expressing the meaning of "Beauty" were picked up from explanatory dictionaries and semantic dictionaries, their common meanings were determined, and the synonyms of the word "Beauty" were further analyzed.*

***Аннотация:** В данной статье были подобраны лексические единицы, выражающие значение слова «Beauty», из толковых и семантических словарей, определены их общие значения, а также дополнительно проанализированы синонимы слова «Beauty».*

Bugungi kunga kelib chet tilini bilish, uni mukammal o‘rganish zamon talabiga aylanib bo‘ldi. Ma’lumki, har bir kishi milliy urf-odat, til, tarix, adabiyotni o‘z ichiga olgan anik bir madaniyatga tegishlidir. Mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy, ilmiy aloqalar tilni madaniyatni aks etuvchi vosita deb talqin etilishiga olib keldi. E.Sepir ta’kidlaganidek, til - bu madaniyatni o‘rganishda yo‘l ko‘rsatuvchi vositadir. Shuning uchun tilni bilgan inson boshqa davlatning madaniyatini o‘sha davlatning tilini o‘rganish orqali osongina o‘rganib tahlil qilishi mumkin.

Bilamizki, tilni o‘rganayotganda faqat so‘zlarni, gapirishni emas, balki tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniyati, aholisining dunyoqarashi, hayot tarzi, urf-odatlar, bayramlari hakida bilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida tilshunoslikda yangi bir soha paydo bo‘lishiga, ya’ni lingvomadaniyatshunoslik fanining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Lingvomadaniyatshunoslik — tilshunoslik va madaniyatshunoslikning birikishidan hosil bo‘lgan tilshunoslikning bo‘limi bo‘lib, u tilda namoyon bo‘lgan

madaniyatni aks etuvchi til birliklarini o'rganadi (qarang: D.U.Ashurova, O'.Q.Yusupov, V.A.Maslova, V.N.Teliya, V.V.Vorobyov, V.I.Karasik). Lingvomadaniyatshunoslikning vazifasi til va madaniyat munosabatlarini, tilda madaniyatning aks etishini, madaniyatlararo muloqotni o'rganishdan iborat.

Shu tariqa so'ngi yillarda tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlar ancha jonlandi. Tillarning milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganishga, qiziqish tobora ortib bormokda. Milliy va madaniy xususiyatlarni belgilash bevosita qiyosiy-chog'ishtirma usul orqali amalga oshiriladi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar o'rganish jarayonida bizga ma'lum bo'ldi-ki, milliy-madaniy xususiyatlarni aniklashda uslubiy vositalardan qiyoslash, metafora, metonimiyalarning ancha faolligi ko'zga tashlandi. Bundan tashqari xar bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalashda zoosemizmlar, florizmlardan ham keng foydalanish xodisalari kuzatildi. Bunga asosiy sabablardan biri aynan bir hayvon turli tillarda turlicha ma'no kasb etishidadir, ba'zan xattoki umuman qarama-qarshi sifatlarni ifodalashidadir.

Maqola ingliz va o'zbek tillari manbasi asosida guzallik tushunchasini tahlil qilish jarayonida saralangan leksik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan.

"Beauty" tushunchasining ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar izohli lug'atlardan, hamda semantik (tezaurus) lug'atdan saralab olindi. Izohli lug'atlar bo'yicha ularning umumiy ma'nolari aniqlandi.

Tahlil natijasidan shu narsa ayon bo'ldiki, guzallik ma'nosining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashda osmon jismlariga qiyoslash, zoosemizm, florizmlardan foydalanish mumkin.

"Beauty" ma'nosini ifodalovchi leksik birliklarni tahlil etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik –ki "Chiroylilik" estetik tushuncha (konsept) sirasiga mansub bo'lib, u o'zining qarama-qarshi "Xunuklik" ma'nosi bilan har doim yonma - yon turadi, ya'ni makon va zamonda ham yonma - yon turib, bir - birini taqozo etuvchi tushunchalardir. Ular tabiat va jamiyatda uzviy, ajralmas holda mavjud bo'ladi. Har ikkala tushuncha ham insondagi "yoqimlilik" hissini namoyon qiladi. Shu "yoqimlilik" hissi kamayib borib, yoqimsizlik hissiga aylanadi, ya'ni chiroylilik - xunuklikka aylanadi. Shunday qilib oppozitsiyadagi leksemalar qarama-qarshi ma'noga ega bo'lganligi sababli ijobiy va salbiy ifodada bilan bog'likligi aniqlandi. Komponent tahlil metodi yordamida ularning arxisemalari aniqlandi. "Beauty" konseptini ifodalovchi so'zlar guruhi uchun "attractiveness" arxisemasi xosdir. Ushbu qatordagi barcha so'zlarning tarkibida "yoqimlilik" hissi semasi mavjud. Bu sema bu qatordagi so'zlar uchun umumiy sema hisoblanadi. Aynan shu sema orqali ular bir katta semantik

maydonga birlashadi. Tahlil jarayonida "Beauty" ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar tarkibida uch integral semalar mavjudligi ma'lum bo'ldi:

"Look attractive"- insonning tashqi ko'rinishi chiroyli. Ushbu sema o'z ostiga *beautiful, good - looking, lovely, beauteous, handsome, pretty, charming, fine, elegance, Adonis, picturesque, comely, cover -girl, prince -charming, appealing, cutie, belle, raving, beauty queen, dazzling, enchantress, glamorize, photogenic, good - looks, statuesque, quaint, florid, fetching, winsome, lovable, blooming, presentable, sort, sleek, elegant, grace, graceful flatter, primp, transfigure, clean - limbed, sublime, sweet, aesthetic, attractive* va boshqalarni birlashtiradi.

Masalan: *I choose my friends for their good looks, my acquaintances for their good characters, and my enemies for their good intellects* (Wilde O.); *Oh, something like charming boy - poor dear mother and I - absolutely inseparable* (Wilde O.); *He could not help liking tall, graceful young man who, was standing by him* (Wilde O.); *She was an extraordinarily beautiful girl.* (Wilde O.); *If he is like his mother he must be a good - looking chap* (Wilde O.).

✓ **"Pleasing appearance of someone"** – insonning qaddi-qomatini chiroyliligi. Ushbu integral sema quyidagi so'z va so'z birikmalarida namoyon bo'ladi: *curve, shape, shapeliness, curvaceous, fair, fair-proportions, vital statistics, suit, goodly, showy, dainty, straight, fit, slightly, bright - eyed, petite, lean, manly, leonine, bony, rosy,*

Masalan: *Marry took dainty bites from the sandwich.* (Longman, p. 368.); *She has a tall slender figure* (Macmiilan, 2007. -p. 1404); *She had a slim youthful figure* (Longman. 2007. - p. 1405).

✓ **"Pleasing appearance of things and nature"**- predmetlar va tabiatning chiroyliligi. Quyida miqdor jihatdan oz bo'lsada, predmetlar hamda tabiatning tashqi ko'rinishini chiroyliligini ifodalovchi so'z va so'z birikmalarini ajratdik. Ular quyidagilar: *scenery, scenic, landscape, view, tidy, grandeur, gorgeous, spruce, neat, vision, polisher; neaten, snappy, fashionable, brightness, brighten, jewel, bejewel, pearl, resplendent* va hakoza.

Masalan: *The house was always neat and tidy.* (Longman, 2007. - p.998). *Switzerland has some spectacular scenery.* (Longman, 2007. - p. 1327).

Tadqiqotimizda ilmiy adabiyotlar o'rganish, hamda faktik material tadqiqi natijasida differensial sema vazifasini intensivlik markerlari bajarishi aniqlandi. Intensivlik bu moddiy borlikdagi intensivlik hodisasining tildagi tajalli ko'rinishidir. (Kubryakova, 2004). Intensivlik milliy-madaniy xususiyatga egadir. U lingvistik va ekstralingvistik faktorlarga bog'lik holda namoyon bo'ladi. Intensivlik bir tomondan, sifat, miqdor, me'yor kabi falsafiy kategoriyalar bilan, ikkinchi tomondan esa,

ekspressivlik, emotsionallik, baholash, obrazlilik kabi kategoriyalar bilan uzviy bog'liq. (Maslova,2005). Sababi, intensivlik, emotsionallik, obrazlilik, baholash kabi kategoriyalarning yagona maqsadi ekspressivlikni ifodalash, nutqni ta'sirchan qilishdan iborat. Intensivlik bularning barchasi uchun me'yoriy o'lchov vazifasini o'taydi.

Demak, intensivlik nafaqat tilda balki, tildan tashqarida ham mavjud. Bu hodisa tilda "kuchaytirish" ma'nosida tushunilsa, tildan tashqarida esa, "tezlashtirish", "jadallashtirish" ma'nolarida qo'llaniladi. (Turanskiy, 1990).

"Beauty" ma'nosini ifodalovchi leksik birliklarning strukturaviy va semantik jihatdan o'rganilishi natijasida intensivlikni ifodalovchi leksik birliklar uchun AN (Adjective+Noun) modeli faolligi ma'lum bo'ldi.

Saralangan faktik material tahlili shuni ko'rsatdi-ki intensivlik tilning turli sathlarida namoyon bo'ladi va har bir sathda o'ziga xos xususiyatga ega. Ingliz tilida fonetik va leksik usulda ma'no kuchaytirish boshqa usullarga qaraganda faol hisoblanadi. Intensivlikni ifodalashda stilistik troplarning ahamiyati ham juda katta. Bunga asosiy sabablardan biri, ushbu troplar orqali har bir millatning hayot tajribasi, urf-odati, dunyoqarashi ifodalanishidir.

Tahlil jarayonida "beauty" konseptini ifodalovchi so'zlarning ma'nosini kuchaytirish uchun qo'yidagi intensifikatorlar ishtirok etishi aniqlandi: *angelich, arresting, breathless, dazzling(Iy), divine(ly), fabulous(ly), glorious (ly), great (ly), ideal, incommensurable majestic, radiant, rare, raving* va boshqalar.

Yasama so'zlar ma'nosini kuchaytirishda kuyidagi intensifikatorlar {*chollesstial, immense(ly), frantically, terribly, grossly, overwhelmingly*) ancha faol. Masalan: *Flew is awfully attractive* (Galsworthy J.). Chiroyli so'zi ba'zan "as" bog'lovchisi orqali ifodalanadi. Masalan: *beautiful as an angel* - farishtadek chiroyli; *beautiful as a swan* - oqqushdek chiroyli.

Florizmlar ushbu ma'noda deyarli qo'llanilmas ekan, sababi "gul" leksemasining semantik strukturasi "yokimlilik" semasi mavjud bo'lib, salbiy ma'no ifodalovchi so'zlar bilan birika olmasligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga kura, ayollar go'zalligini yanada kuchaytirishda ingliz xalqi madaniyatida "jinsiy jozibadorlik" oldingi o'rinda turadi. Mazkur holat o'zbek xalqi madaniyatida alohida ta'kidlanmaydi. O'zbek xalqi madaniyatida birinchi galda tashki go'zallik emas, balki ayollar ichki dunyosining go'zalligi, hayo, ibo, eriga itoat, mehnatsevarlik kabi xislatlarga e'tibor qaratiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joiz-ki, "Beauty" ma'nosini milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiqi jarayonida intensifikatorlar muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Intensivlikni lingvomadaniyatshunoslik tomondan tadqiq qilish uni

konseptuallashuvi va milliy - madaniy xususiyatlarini aniqlash orqali amalga oshirildi. Konseptual tahlil intensivlikni ifodalovchi soʻzlarning maʼnosini chuqurroq oʻrganish imkonini berdi. Shu bilan birga bizga maʼlum boʻlishicha aynan bir holatni kuchaytirib ifodalashda ingliz va oʻzbek tillari bir-biriga mos kelishdan koʻra farqli xolatlar koʻpligi koʻzga tashlandi. Bizningcha, bunga sabab falsafiy tushunchalarning umuminsoniy xarakterga ega ekanligi va mazkur xalq tilining oʻziga xos xususiyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Кубрякова Е.С. Язык и знание - М.: Языки славянской культуры, 2004
2. Маслова В.А. Антропоцентрическая парадигма как важнейшая система научных представлений в современной лингвистике в сб: Филология и современность. - М: Меридус, 2005. - С. 90-100.78.
3. Сулейманова О.А., Беклемешева Н.Н. Основы языковой категоризации мира: пространство, время, причинность и принцип неслучайной связи // Вестник РИО Иркутского государственного лингвистического университета. - Иркутск, 2009. - № 3. - С. 87-92.
4. Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. -М.: Высшая школа 1990.- 240 с.
5. Убин И.И. Англо-русский словарь усилительных словосочетаний. - М.: Энциклопедия, 2009.
6. Longman Dictionary of Contemporary English, new edition. - Cambridge university press, 2007. - 1650 pp.
7. Roget's Thesaurus of English words and phrases. Wash. 1996.
8. Webster's Thesaurus of English synonyms and antonyms, W, New York, 1996.
9. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т., «Ўқитувчи», 1978.
10. <http://wikipedia/phraseologicalunits/english/htm>
11. <http://englishgrammar/phraseology/htm>
12. <http://liguaculturology/aspects/studymatter/htm>